

LUQMON BO'RIXON ASARLARIDA QAHRAMONLAR PSIXOLOGIZMI

Ne'matullayeva Sohobaxon

Andijon davlat universiteti O'zbek folklorshunosligi(10.00.08)

yo`nalishi birinchi bosqich tayanch doktoranti

sohibaorinova@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.17355547>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Luqmon Bo'rixon ijodida qahramonlar psixologizmining badiiy talqini tahlil qilingan. Muallif asarlarida inson qalbining ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, orzu-intilishlari va ma'naviy izlanishlari chuqur tahlil etilishi o'rganiladi. Yozuvchining "Imomi Motrudiy", "Jaziramadagi odamlar" va "Qo'noq" asarlaridagi obrazlar misolida ruhiy tahlilning badiiy ifoda vositalari, til va uslub xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijasida Luqmon Bo'rixon ijodida psixologik tahlil insonni o'zligini anglashga undovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Luqmon Bo'rixon, psixologizm, badiiy tahlil, ruhiyat, qahramon, ichki monolog, milliy qadriyat.

This article analyzes the artistic interpretation of psychological elements in the works of Luqmon Bo'rixon, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. It explores how the author deeply reveals the inner world of his characters — their emotions, mental struggles, and spiritual quests. Through the examples of the novels "Imomi Motrudiy", "Jaziramadagi odamlar" and the short story "Qo'noq", the study examines the writer's language, style, and the means of expressing psychological depth. The findings show that psychological analysis in Luqmon Bo'rixon's works serves as a powerful artistic tool that leads the reader toward self-awareness and spiritual reflection.

Keywords: Luqmon Bo'rixon, psychological analysis, artistic interpretation, human psyche, character, inner monologue, national values.

O'zbek adabiyotida inson ruhiyati, ichki kechinmalari va tafakkur dunyosini badiiy ifodalash masalasi mustaqillik davrida yangi bosqichga ko'tarildi. Shu jihatdan Luqmon Bo'rixon ijodi alohida e'tiborga loyiqdir. Yozuvchi asarlarida inson qalbining eng nozik qirralari, kechinmalari, ichki iztiroblari va orzu-armonlari chuqur psixologik tahlil orqali yoritiladi. Uning asarlari o'zbek adabiyotida ruhiy tahlil san'atining yangi ufqlarini ochgan, zamonaviy insonning murakkab ichki olamini aks ettirishda o'ziga xos badiiy maktab yaratgan.

Asosiy qism

Luqmon Bo'rixon asarlarida psixologizmlilik, eng avvalo, qahramonlarning ichki monologlari, tasviriy tafsilotlar va muallifning nozik kuzatuvchanligi orqali namoyon bo'ladi. Yozuvchi voqealar rivojini tashqi harakatlar orqali emas, balki qahramonlarning ichki kechinmalari orqali ko'rsatadi. Shu sababli uning qahramonlari real hayotdagi insonlar singari o'ylaydi, iztirob chekadi, o'zini anglashga intiladi. Masalan, "Imomi Motrudiy" romanida diniy va falsafiy mushohada qahramonning ichki dunyosi bilan uzviy bog'langan. Asarda Motrudiy obrazining shakllanish jarayoni, uning tafakkuri, ilohiy haqiqatni anglash yo'lidagi izlanishlari o'ta chuqur psixologik tahlil asosida beriladi. Yozuvchi bu yerda qahramonning ruhiy kechinmalarini diniy-falsafiy mushohadalar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchini ruhiy tafakkur olamiga olib kiradi.

Shuningdek, “Jaziramadagi odamlar” romanida ham inson ruhiyati markaziy o‘rinni egallaydi. Asarda qahramonlar ichki iztiroblar girdobida yashaydi. Yozuvchi ularning ongidagi ziddiyat, umid va qo‘rquv holatlarini nozik psixologik vositalar yordamida yoritadi. Jazirama- bu yerda nafaqat tabiiy hodisa, balki inson qalbidagi ichki iztirob, ruhiy issiqlik, azob ramzi sifatida qo‘llanilgan. “Qo‘noq” hikoyasidagi noma‘lum qahramon esa, o‘z ichki dunyosi, tasavvurida o‘zining hayoliy mamlakatida erkin va mustaqil, samolarga parvoz etgan holda yashaydi.

Luqmon Bo‘rixon uchun psixologik tafsilot – bu shunchaki tasvir vositasi emas, balki insonni tushunish kaliti vazifasini bajaradi. U so‘zning botiniy ma‘nosiga, to‘xtamlar, jimjitlik, nigoh, harakat kabi unsurlarga katta e‘tibor beradi. Qahramonning sukuti, bir qarashda arziyas harakati ham chuqur ma‘noga ega bo‘ladi. Shu orqali yozuvchi o‘quvchini qahramonning ichki dunyosiga olib kiradi.

Yozuvchining asarlarida ayol obrazlari ham alohida o‘rin tutadi. Ayollar ruhiyatidagi sezgirlik, mehr, sabr va ichki kurashlar nozik tahlil bilan yoritiladi. Masalan, “Jaziramadagi odamlar” hikoyasidagi bish qahramonlardan biri Lolaning hayotida yaxshi kunlar boshanganida va bir umr shunday yashayman deb o‘ylay boshlaganda boshiga tushgan bevalik va uning ortidan kelgan og‘riqli kechinmalari, o‘tgan hayotdan armon bilan eshlari, o‘zligini topish yo‘lidagi iztiroblari, sabr, sadoqat va xiyonat kabi tushunchalarning tasviri yozuvchining inson ruhiyatini chuqur his qilish qobiliyatini ko‘rsatadi.

Psixologik tasvirda yozuvchining til tanlovi ham muhim o‘rin tutadi. Bo‘rixon uslubida xalq tili, maqollar, ramziy so‘zlar, xalqona iboralar keng qo‘llanadi. Bu holat qahramonlarning ichki holatini yanada tabiiy ko‘rsatadi, ruhiy tahlilni milliy tusda ochishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Luqmon Bo‘rixon qahramonlari psixologizmi o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatini tahlil qilish madaniyatini yangi bosqichga olib chiqqan. Yozuvchi qahramonlarning tashqi hayotini emas, ularning ichki olamini, ruhiy iztiroblarini, fikr va hissiyotlaridagi ziddiyatlarni tahlil etish orqali o‘quvchini o‘zlikni anglash sari yo‘naltiradi. Shu bois, Bo‘rixon asarlari nafaqat badiiy, balki falsafiy va ruhiy ma‘no jihatidan ham boy, teran asarlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo‘rixon L. Imomi Motrudiy. – Toshkent: Sharq, 2022.
2. Bo‘rixon L. Jaziramadagi odamlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
3. Bo‘rixon L. Qo‘noq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Yo‘ldoshev Q. Zamonaviy o‘zbek romani poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
5. Karimov N. O‘zbek adabiyotida psixologik tahlil masalalari. – Toshkent: Fan, 2014.
6. Jo‘rayev M. O‘zbek nasrida psixologik tahlil tamoyillari. – Toshkent: Fan, 2020.